

## 2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



**2222,1**  
mlrd. so'm

**101,8 %**

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida jami **2222,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **181,3** mldr. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **123,7 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,6 %** punktga ko'payib, **8,2 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **42,9 %** yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **176,7 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,4 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,2 m.**), va Bog'ot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,7 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,9 %**) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **57,7 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **95,0 %** ni tashkil etgan holda **1282,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi yoki **758,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish **110,1 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **126,3** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2095,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,7 %** va **94,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2222,1</b>	<b>126,3</b>	<b>5,7</b>	<b>2095,8</b>	<b>94,3</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>565,7</b>	<b>42,6</b>	<b>7,5</b>	<b>523,1</b>	<b>92,5</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>149,0</b>	<b>7,1</b>	<b>4,8</b>	<b>141,9</b>	<b>95,2</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>128,4</b>	<b>11,8</b>	<b>9,2</b>	<b>116,6</b>	<b>90,8</b>
<b>Gurlan</b>	<b>136,7</b>	<b>13,2</b>	<b>9,7</b>	<b>123,5</b>	<b>90,3</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>129,6</b>	<b>7,9</b>	<b>6,1</b>	<b>121,7</b>	<b>93,9</b>
<b>Urganch</b>	<b>178,8</b>	<b>4,3</b>	<b>2,4</b>	<b>174,5</b>	<b>97,6</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>76,2</b>	<b>7,8</b>	<b>10,2</b>	<b>68,4</b>	<b>89,8</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>53,2</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>53,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Xonqa</b>	<b>183,1</b>	<b>4,7</b>	<b>2,6</b>	<b>178,4</b>	<b>97,4</b>
<b>Xiva</b>	<b>180,2</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>180,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>140,6</b>	<b>14,0</b>	<b>10,0</b>	<b>126,6</b>	<b>90,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>145,8</b>	<b>5,5</b>	<b>3,8</b>	<b>140,3</b>	<b>96,2</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>154,8</b>	<b>7,4</b>	<b>4,8</b>	<b>147,4</b>	<b>95,2</b>

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 72,6 % yoki **1613,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

72,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **154,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi

9,6 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **749,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,4 % ni tashkil etdi.

46,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **709,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 44,0 % ni tashkil etdi.

44,0 %




**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O’sish sur’ati, % da</b>	<b>Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2222,1</b>	<b>101,8</b>	<b>1613,7</b>
<b>Urganch sh.</b>	565,7	94,9	415,9
<b>Xiva sh.</b>	149,0	88,4	97,2
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog’ot</b>	128,4	100,5	83,3
<b>Gurlan</b>	136,7	100,6	96,2
<b>Qo’shko’pir</b>	129,6	106,1	93,0
<b>Urganch</b>	178,8	90,8	131,5
<b>Hazorasp</b>	76,2	100,6	50,7
<b>Tuproqqa’la</b>	53,2	96,5	40,4
<b>Xonqa</b>	183,1	156,0	155,8
<b>Xiva</b>	180,2	98,5	103,3
<b>Shovot</b>	140,6	103,9	112,5
<b>Yangiariq</b>	145,8	121,3	117,5
<b>Yangibozor</b>	154,8	103,2	116,4

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,0 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga kamayib, **51,0 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko`payib, **48,0 %** ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,3 %** (**3,5 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,9 %** punktga ko`paydi va **41,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **58,8 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,9 %** punktga kamaydi.

*ulushi, % da*






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-sentabr oylarida**

*mldr. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2222,1</b>	<b>1579,1</b>	<b>460,7</b>	<b>182,3</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>565,7</b>	<b>287,6</b>	<b>235,7</b>	<b>42,4</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>149,0</b>	<b>104,8</b>	<b>40,5</b>	<b>3,7</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	<b>128,4</b>	<b>91,0</b>	<b>28,3</b>	<b>9,1</b>
<b>Gurlan</b>	<b>136,7</b>	<b>111,4</b>	<b>17,0</b>	<b>8,3</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>129,6</b>	<b>103,9</b>	<b>15,3</b>	<b>10,4</b>
<b>Urganch</b>	<b>178,8</b>	<b>139,9</b>	<b>28,3</b>	<b>10,6</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>76,2</b>	<b>62,9</b>	<b>12,4</b>	<b>0,9</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>53,2</b>	<b>43,3</b>	<b>9,0</b>	<b>0,9</b>
<b>Xonqa</b>	<b>183,1</b>	<b>106,3</b>	<b>9,8</b>	<b>67,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>180,2</b>	<b>148,6</b>	<b>24,6</b>	<b>7,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>140,6</b>	<b>109,5</b>	<b>15,5</b>	<b>15,6</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>145,8</b>	<b>135,5</b>	<b>8,7</b>	<b>1,6</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>154,8</b>	<b>134,4</b>	<b>15,6</b>	<b>4,8</b>



**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**




**Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiylajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 92,9 % i yoki **135,5** mlrd. so'm), shuningdek, Yangibozor tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 86,8 % i yoki **134,4** mlrd. so'm) va Hazorasp tumanlari ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 82,5 % i yoki **62,9** mlrd so'm) yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 41,7 % i yoki **235,7** mlrd. so'm), Xiva shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 27,2 % i yoki **40,5** mlrd. so'm), Bog`ot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 22,0 % yoki **28,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi,  
jamiga nisbati, % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,  
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Xonqa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 36,6 % i yoki **67,0** mlrd. so'm), Shovot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 11,1 % i yoki **15,6** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 8,0 % i yoki **10,4** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati  
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22